

Saloxiddinova Nigoraxon Inomjonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDOGOGY” NOTM. Andijon

Annotatsiya. *Maqolada badiiy adabiyotning hamma davrlarida ham kuzatiladigan shakliy izlanishlarning samaradorligi, mazmunga hamohangligi haqida ayrim mulohazalar berilgan.*

Kalit so'zlar. *Ijodiy izlaishlar, zinapoya shaklidagi she'rlar, mustaqillik davri she'riyatining ustuvor tamoyillari, ko'ngil lirikasi*

Dunyo she'riyati hamma davrlarda ham an'anaviylikdan chekinib, yangi shakllar topishga intiladi. Lirika his-tuyg'uning mos ritm va ohangda ifoda etilishi bilan ta'sirdorligini ko'rsatsa-da, biroq bu talab ijodkorning tanlay bilgan obrazi bilan yanada mukammallik kasb etadi. Sababi shoir obrazda kechinmalarini, his-tuyg'ularini xuddi musavvirdek chizishga intiladi.

Bugungi davr she'riyatida zinapoya shaklidagi she'rlar, bosh harflar bilan yozish, so'zni alohida misrada ko'rsatish kabilar ijodiy izlanishlar samarasi bilan ommalashib, ifoda vositasiga aylanib borayotganligini aytish joiz. Bu o'z navbatida mazmunning talabiga bo'ysunish, yoxud ko'ngil lirikasining mohiyatiga evrilish bilan yuzaga kelgan ifodalar ham bo'lishi mumkin.

Eng avvalo, badiiy adabiyotda mazmunning o'zgargani, yoki shakliy izlanishlar samarasi, albatta, ijodkor yashagan davrga, zamonga ham bog'liq jarayondir. Chunki so'z san'atkor mavjud tuzum ta'siridan ilhomlanadi, bil'aks ba'zi davrlarda “bo'ysunadi” ham. Mustaqillik davri she'riyatini tadqiq etgan Ulug'bek Hamdam istiqloq davri lirikasining beshta tasnifini keltiradi. Bular quyidagilar:

1. An'anaviy barmoq.
2. Xalqona ohang.
3. Aruz.
4. Modernistik ohang (yoki ohangsizlik).
5. Sinkretik (qorishiq) ifoda usuli...¹⁹

Bizningcha ham ayni shu jihatlar mustaqillik davri she'riyatining ustuvor tamoyillaridandir. Shoir badiiy asarda mazmunning mukammalligiga erishgan holda ana shunday ifoda uslublaridan bugungi kunda faol foydalanmoqda.

Bugungi davr she'riyati mazmunning ko'ngil mavzusi atrofidagi muammolarga qaratilganligi, ohangning quyuq va to'q bo'yoqlarda (so'zlarda) ifoda etilishi, she'r

¹⁹ Ulug'bek Hamdam. 90-va 2000-yillar o'zbek she'riyatining asosiy tamoyillari. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2006. 288 b

vaznining hamda band tizimlarining ifoda imkoniyatlari kengayib borayotganligi bilan xarakterlanadi. Bu o‘z navbatida mustaqillik davri she‘riyati tamoyillarining yangilanib borayotganligiga asos bo‘la oladi, nazarimizda. Albatta, badiiy shakl va mazmun borasidagi yangilanish va o‘zgarishlar birdaniga yuz bermaydi. Bunday o‘zgarishlar adabiyotimiz an‘analari negizida, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot, turli adabiy jarayondagi o‘zgarishlar sabab yuzaga keladi. Ko‘rinadiki, ijodkor o‘zidan avvalgi shoirlarning an‘analarini o‘zlashtirgani holda unga o‘zining qarashlarini-da asariga singdirib boradi. Ijodkor mazmunning poetikligini unga mos shaklda ifodalab bera olishi adabiy asarning qiymati va qimmatini belgilaydi.

Badiiy-estetik izlanishlar samarasi tufayli bugungi davr she‘riyatida yaratilgan va yaratilayotgan asarlarning band tizimlari, ifoda imkoniyatlari, mazmunning ijtimoiy muammolardan ko‘ra shaxsning yakkaholligini ifoda etayotganligi haqida to‘xtalmaslikning iloji yo‘q. She‘riyatning ifoda uslubi, yo‘nalishi o‘zgargan ekan, demak, mazmunda ham yangi poetik g‘oyalar davrning, ijodkorning badiiy niyatiga hamohang tarzda kechadi.

Ko‘ngil lirikasining sof holda namoyon bo‘lishi, o‘quvchi qalbining tub-tubigacha yetib borishi albatta shoirning tanlay bilgan mavzusida va mazmunning poetikligida ko‘rinadi. Qalamkash ma‘naviyati va iste‘dodi bilan ziynatlangan, sayqallangan she‘r, tabiiyki, o‘z “libos”i – shakli bilan ham ahamiyatlidir.

Ayol ijodkorlar she‘riyatida nafaqat mazmun, balki, band shakllari bilan bog‘liq shakliy izlanishlarning samarasini ular yaratgan asarlarda ko‘rish mumkin. Masalan, Farida Afro‘z she‘riyatida uchlik she‘rlarning yaratilayotgani, Zebo Mirzaeva, Halima Ahmedova ijodida so‘zlarning satrlarda yakka holda kelishi yoki bandlarning astrofiklashuvi kuzatiladi. Professor H. Boltaboev astrofik she‘rga quyidagicha munosabat bildiradi: “Asrtifik she‘r – banddagi bir xil qonuniyat va takrorlarga amal qilmaydigan she‘r. Astrofik she‘r tuzilishida bir band to‘rtlik shaklida, bir band ikkilik shaklida yana boshqasi (mas...sakkizlik) shaklida uchraydi”²⁰.

Ma‘lumki, mumtoz o‘zbek she‘riyatida masnaviy – ikkilik, musallas – uchlik, murabba’ – to‘rtlik, muxammas – beshlik, musaddas – oltilik, musabba’ – yettilik, musamman – sakkizlik, mustasne’ – to‘qqizlik, muashshar – o‘nlik tarzida ifodalanadi. Bugungi davr adabiyotida esa mazmunga monand bandlarning siqilashuvi yoki kengayishi kuzatilmogdaki, bu holat bir misrali she‘rlardan tortib, bir misrada ifodalanishi kerak bo‘lgan fikrning yakka holda satrdan satrga ko‘chib borishida ko‘rinadi. Ayni shu jihatlar shoirning poetik uslubini ko‘rsatish bilan bir qatorda bugungi adabiy jarayonning muhim yutuqlaridan biri ekanligini belgilaydi.

Har bir ijodkor o‘zidagi ruhiy holatlarni aniqroq yetkazib bera olish uchun qo‘llayotgan til nozikliklarini puxta egallagan bo‘lishi zarur. Busiz o‘zini anglatish, tuyg‘ularini so‘zda namoyon qilish imkonsiz. Zebo Mirzo ana shunday ijodkorlardan. Uning ijodi zamonaviy o‘zbek she‘riyatida o‘ziga xos badiiy hodisadir. Shoir she‘rlarida

²⁰Boltaboyev. H. Adabiyot ensiklopediyasi. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2015. – B.553. 664 B

soʻz oʻzining qudrati, shiddati, jozibasi bilan toʻla namoyon boʻladi. U soʻzni jonlantiradi, tuygʻularni nafaqat his etish, balki koʻrish imkonini ham beradi. Buni quyidagi sheʼr misolida koʻrishimiz mumkin.

Yuraginga yurib kirasiz,
yuragimdan chiqasiz ketib...
Nafasim yetmaydi
“qoling” demoqqa,
Ruhim devorini oʻtasiz yiqib...

Bor-yoʻgʻi – YURAKMAN
mahtal bir ishqqa,
Barcha gunohingiz keladi kechgim.
Sochilib ketaman sizsiz boʻshliqqa,
Meni
terib
olmaydi
Hech Kim!²¹

Koʻrinadiki, voqelik tashqi olam taʼsiriga bogʻliq emas. Lirik qahramon oʻzining ishqdan ezilgan holatini musavvirdek chizib koʻrsatishga urinadi. Sheʼr mazmuni hijrondan oʻrtangan ayol obrazini ifodalab kelsa, sheʼr shakli uning ruhiyatini anglatmoqqa urinadi. Zinapoya shaklida keltirilgan soʻnggi misra sheʼr kulminatsiyasini belgilaydi. Chunki unda mazmunning aniq muddaosi namoyon boʻladi, toʻgʻrirogʻi, ijodkorning ruhiy holati konkretlashadi. Sheʼrdagi koʻp nuqtalarning takror qoʻllanilish holatlari, ayrim soʻzlarning bosh harflar bilan ifodalanishi, satrlarning soʻzma-soʻz zinapoya boʻlishi kabilar oʻquvchi ruhiyatiga taʼsir oʻtkaza olishi, shubhasiz. Sheʼrda **YURAK** va **Hech Kim** soʻzlari asosiy mazmuni koʻrsatuvchi leksemalar boʻlsa, mazmun ham aynan shu soʻzlarning lirik ifodasidan toʻyinadi. Ijodkor emotsional vaziyatni yangicha, yaʼni mavhum vaziyat bilan paydo qilar ekan, albatta, bu sheʼriyatimizning yangi qirrasini oshkor qiladi.

²¹ Mirzayeva. Z. Ishq. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B. 29.